

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIK VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

«IQTISODIYOT VA BOSHQARUV “ FAKULTETI

«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

fakultet dekani, i.f.n.

X.X.KOMOLOV _____

«___» _____ 2015 y.

«HIMOYAGA RUXSAT ETAMAN»

kafedra mudiri, i.f.n.

S.MAXMUDOV _____

«___» _____ 2015 y.

**“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” TA'LIM
YO'NALISHINING BITIRUVCHISI**

NURBEK MINGBOYEV

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: «DAT ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA
ZARARLAR HISOBI VA UNING TAHLILI».**

BMI rahbari:

i.f.d. professor:

Bajaruvchi:

A.Abdullaev

N.Mingboyev

ANDIJON – 2015

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIGI INSTITUTI
IQTISODIYOT VA BOSHQARUV FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”

Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasining
mudiri i.f.n.

S.Q.Maxmudov_____

« ____ » _____ 20__ yil.

**Kunduzgi bo'lim “Buxgalteriya hisobi va audit”
ta'lim yo'nalishining 4-bosqich
talabasi Nurbek Mingboyevning
bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun**

TOPSHIRIQ

- 1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi:** institut rektorining _____ yil _____
_____dagi №_____ - _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
- 2.BMIning mavzusi:** DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlar hisobi
va uning tahlili.
- 3.Bitiruv malakaviy ishni tugatish vaqti** 6 may 2015 y.
- 4.Bitiruv malakaviy ishning asosiy bo'limlari.** BMI kirish, asosiy qism, xulosa va
takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.
- 5.Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun kerakli ma'lumotlar.** «Buxgalteriya hisobiya
to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Moliya
Vazirligining BHMSlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari,
I.A.Karimov asarlari, mavzuga oid adabiyotlar, hamda DAT “Asakabank” Farxod
filialiining 2013-2014 yillardagi yig'ma va yillik hisobotlari hamda mavzuga oid
bo'lgan boshqa ma'lumotlari.
- 6. Bitiruv malakaviy ishda foydalaniladigan jadvallar.** Bitiruv malakaviy ishda mavzu
mohiyatini yoritishga yordam beradigan 5 ta jadval, 4 uzatma tuzilib, ulardan 4 tasi
bevosita ximoya jarayonida foydalaniladi.

<i>Bitiruv malakaviy ishning asosiy qismlari</i>	<i>Asosiy qismlarni bajarish vaqti</i>	<i>Rahbar unvoni, F.I.SH.</i>	<i>Imzo</i>
Kirish	05.09.2014-01.11.2014	i.f.d prof: A.Abdullaev	
I-BOB. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va hisobotining me'yoriy-huquqiy asoslari		i.f.d prof: A.Abdullaev	
1.1.Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari	02.11.2014-15.11.2014	i.f.d prof: A.Abdullaev	
1.2.Banklarda foyda va zararlar hisobining uslubiy va huquqiy asoslari	16.11.2014-15.12.2014	i.f.d prof: A.Abdullaev	
II-BOB. DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlar hisobi uning taxlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.		i.f.d prof: A.Abdullaev	
2.1.DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlarni tavsifi hamda ularni aniqlash tartibi.	16.12.2014-16.01.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
2.2.DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda hisobini tahlili	17.01.2015-28.02.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
2.3.DAT "Asakabank" Farxod filialida xarajatlar (zararlar) hisobini tahlili	01.03.2015-25.03.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
III-BOB. DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tuzish tartibi		i.f.d prof: A.Abdullaev	
3.1.DAT "Asakabank" Farxod filialida "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotni tuzish tartibi	26.03.2015-15.04.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
3.2.DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlar hisobini takomillashtirish yo'llari.	16.04.2015-1.05.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
Hulosa va takliflar	02.05.2015-4.05.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati	05.05.2015-6.05.2015	i.f.d prof: A.Abdullaev	

Topshiriq berilgan vaqt 5-sentyabr 2014 yil

BMI rahbari:

i.f.d. professor:

A.Abdullaev

Bajaruvchi:

N.Mingboyev

M U N D A R I J A

1.	Kirish	3-5
2.	<i>I-BOB. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi va hisobotining me'yoriy-huquqiy asoslari</i>	6-13
3.	<i>1.1.Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari</i>	6-9
4.	<i>1.2.Banklarda foyda va zararlar hisobining uslubiy va huquqiy asoslari</i>	10-13
5	<i>II-BOB. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlar hisobi uning taxlilini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari.</i>	14-47
6	<i>2.1.DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlarni tavsifi hamda ularni aniqlash tartibi.</i>	14-18
7	<i>2.2.DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda hisobini tahlili</i>	19-28
8	<i>2.3.DAT “Asakabank” Farxod filialida xarajatlar (zararlar) hisobini tahlili</i>	29-47
9	<i>III-BOB. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tuzish tartibi</i>	48-53
10	<i>3.1.DAT “Asakabank” Farxod filialida “Foyda va zararlar to'g'risida”gi hisobotni tuzish tartibi</i>	48-51
11	<i>3.2.DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlar hisobini takomillashtirish yo'llari.</i>	52-53
12	<i>Hulosa va takliflar</i>	54-55
13	<i>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati</i>	56-58

Topshiriq tugatish vaqti 6-may 2015 yil

BMI rahbari:
i.f.d. professor:

A.Abdullaev

Bajaruvchi:

N.Mingboyev

**MAVZU: DAT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA
ZARARLAR HISOBI VA UNING TAHLILI.**

REJA:

**I-BOB. TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA
HISOBOTINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

- 1.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari
- 1.2. Banklarda foyda va zararlar hisobining uslubiy va huquqiy asoslari

**II-BOB. DAT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA
ZARARLAR HISOBI UNING TAXLILINI TASHKIL ETISHNING O’ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI.**

- 2.1. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlarni tavsifi hamda ularni aniqlash tartibi.
- 2.2. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda hisobini tahlili.
- 2.3. DAT “Asakabank” Farxod filialida xarajatlar (zararlar) hisobini tahlili.

**III-BOB. DAT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA
ZARARLAR TO’G’RISIDAGI HISOBOT TUZISH TARTIBI**

- 3.1. DAT “Asakabank” Farxod filialida “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotni tuzish tartibi.
- 3.2. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlar hisobini takomillashtirish yo’llari.

Hulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzabligi. Bank tizimida tijorat banklari uning muhim bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Buni Prezidentimiz o'z ma'ruzasida alohida ta'kidlab o'tmoqda: "Bank tizimidagi islohotlar iqtisodiyotimizning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashda eng muhim omil bo'ldi. Buning natijasida tijorat banklarining jami kapitali 25 foizga oshdi. Bank tizimining mustahkamlanishi 2014 yilda Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasini 12 foizdan 10 foizga, tijorat banklarining kreditlar bo'yicha foiz stavkasini ham shunga mos ravishda kamaytirish uchun zarur imkoniyatlar tug'dirdi. Banklar tomonidan faqat ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini moliyalashtirishga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2013 yilga nisbatan 1,2 barobar, aylanma mablag'larni to'ldirish uchun ajratilgan kreditlar esa 1,3 martadan ziyod oshdi"¹.

Tijorat banklarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari va raqobat bozori rivojlangan bugungi kunda o'z o'rinlarini topishlari uchun faoliyatlarini hisobga olish va ma'lum bir davrlarda tahlil qilib turishlari maqsadga muvofiqdir. Chunki, hisob va tahlil natijasida banklar faoliyatida yo'l qo'ygan kamchiliklar va erishilgan yutuqlar aniqlanadi.

Tijorat banklari faoliyatlari hisobida asosiy e'tibor daromadlar va xarajatlarga qaratiladi. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar va boshqa operatsiyalarni to'g'ri hisobini yuritish hamda daromad olish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish hisobiga foydani oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Bank tomonidan qilingan xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini qidirib topish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib qolmoqda.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2014-yilning asosiy yakunlari va 2015-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi. 2015 yil. 17 yanvar. № 11 son

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi tijorat banklari foyda va zararlari hisobi bo'yicha ilmiy asoslangan hulosalar va takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslarini o'rganish:

Banklarda foyda va zararlar hisobining uslubiy va huquqiy asoslarini o'rganish:

DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlarni tavsifi hamda ularni aniqlash tartibini tahlil qilish:

DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda hisobini tahlil qilish:

DAT "Asakabank" Farxod filialida xarajatlar (zararlar) hisobini tahlilini tashkil qilish:

DAT "Asakabank" Farxod filialida "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotni tuzish tartibini o'rganish:

DAT "Asakabank" Farxod filialida foyda va zararlar hisobini takomillashtirish yo'llari taklif qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari bo'lib, prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, banklar moliyaviy natijalari hisobi va tahlili bo'yicha milliy va xorijiy iqtisodchi omillarning ilmiy ishlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ishlab chiqilgan yo'riqnomalar va ko'rsatmalari bo'lib hisoblanadi.

Mazkur imliy tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va DAT "Asakabank" Farxod filialining ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti bo'lib DAT "Asakabank" Farxod filiali hisoblanadi. Ishda shu bank faoliyati natijalaridan ma'lumotlar olingan.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi va tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi quyidagicha: kirish, asosiy mazmunini ifodalovchi yettita reja, hulosalar va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalar.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida tijorat banklarida foyda va zararlar hisobining nazariy asoslari ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi bobida tijorat banklarida foyda va zararlar hisobining hozirgi xolati yoritilgan.

Uchinchi bobida tijorat banklarida foyda va zararlar hisobini takomillashtirish va hisobotini tuzish tartibi va takomillashtirish yo'llari yoritib berilgan.

Hulosa va takliflar qismida bitiruv malakaviy ishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida hosil qilingan hulosa va takliflar ifoda etilgan.

I-BOB. TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA MOLIYAVIY NATIJALAR HISOBINING ME'YORIY ASOSLARI

1.1.Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari

Banklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritish muhim ahamiyatga ega. Chunki u banklarning o'z funktsiyalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Buning uchun esa buxgalterlardan ma'lum darajada bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari va uslubiy asoslari to'g'risida ma'lum darajada tushunchaga ega bo'lishni jalb etadi.

Banklarda buxgalteriya hisobini o'rganayotgan talabalar eng avvalo uning korxonalar, byudjet va boshqa kredit muassasalaridan yuritiladigan buxgalteriya hisobidan tub farqlarini tushunishlari zarur.

Banklarda buxgalteriya hisobini va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo'yicha javobgarlik belgilangan.

SHuningdek, quyidagilarni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

1. hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish;
2. bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;
3. bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;
4. bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;
5. hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;

6. bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;
7. bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;
8. operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini doimiy ichki nazorat va auditdan o'tkazish, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;
9. zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag' sarfini qisqartirish.

Banklarda buxgalteriya hisobining ob'ektlari bo'lib qo'yidagilar hisoblanadi:

- yuridik va jismoniy shaxslardan pul hujjatlarini qabul qilish va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirish;
- hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish;
- o'z muddatida qaytarilmagan bank kreditlarini hisobini yuritish;
- muddatli majburiyatlarning hisobi;
- banklararo muomalalar bo'yicha va filiallararo oborotlar hisobi;
- turli punktlardagi to'lovchi va oluvchilarning mablag'lari hisobi;
- berilgan kreditlar hisobi.

SHuningdek, buxgalteriya hisobining ob'ekti bo'lib asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, materiallar, kassadagi pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, qimmatli materiallar, chet el valyutalari va ular bilan amalga oshiriladigan muomalalar, byudjet bilan bo'ladigan hisob-kitoblar, kapital qo'yilmalarni moliyalashtirish, bankning daromadlari va xarajatlari va boshqalar.

Buxgalteriya hisobining ob'ektlarini hisobda aks ettirish va bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini hisoblash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish uchun ularga o'lchov birligi (natura, mehnat va pul) qo'llaniladi.

Banklarda buxgalteriya hisobi oldiga qo'yidagi asosiy vazifalar qo'yilgan:

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va puxta xizmat ko'rsatish, hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank muomalalarini to'g'ri bajarish;
- bajarilgan muomalalarning buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida hamda aniq aks ettirilishiga erishish;
- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan bu hujjatlar borgan joyda foydalanishini yengillashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan muomalalar bajarilayotganda hamda ular xizmat ko'rsatuvchi mijozlar hisobi yuritilayotganda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning, qonunga g'ilof xatti-xarakatining oldini olish;
- bankdan pul mablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalar kam chiqishi, ortiqcha hamda qonunga xilof ravishda sarflanishining oldini olish;
- bank mansabdor shaxslarining o'rnatilgan tartibga zid ravishda bank muomalalarini amalga oshirilganliklarini, qimmatliklar va hujjatlarni yo'qotib qo'yish hamda shu kabi boshqa xollarda ularning javobgarligini hujjatlar bilan asoslash;
- muomalalarni amalga oshirish va rasmiylashtirishni ma'lumotlar to'plash orqali qonuniyligi hamda to'g'riligini tekshirish imkoniyatini berilishi;
- bankda ish kuni tartibiga qat'iy rioya etilishi;
- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan keng ko'lamda foydalanish asosida bank muomalalarini amalga oshirish ular hisobini yuritish hamda hisobotlar tuzish uchun mehnat va mablag' sarfini kamaytirish.

Respublikamizda buxgalteriya hisobining qonuniy asosi bo'lib, 1996 yil 30 avgustda O'zbekiston Oliy majlisi 10 sesiyasida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonuni" hisoblanadi. Ushbu qonun buxgalteriya hisobining yuritilishini tartibga soluvchi qonuniy hujjat hisoblanadi va mulkchilik shaklidan, qaysi tarmoqqa tegishligidan va kattakichiqqligidan qat'iy nazar barcha xo'jalik sub'ektlari va ularning filiallari unda belgilangan tartib-qoidalar asosida buxgalteriya hisobining tashkil qilishi va yuritishlari zarur bo'ladi. Ushbu qonunda banklarda buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi barcha me'yoriy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ishlab chiqarishi ko'rsatilgan, ya'ni Markaziy bank uslubiy markaz hisoblanadi.

1.2. Banklarda foyda va zararlar hisobining uslubiy va huquqiy asoslari.

Respublikamiz tijorat banklarida buxgalteriya hisobi “O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki to‘g‘risida”gi, “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunlarga va Markaziy bankning bir qator yo‘riqnomalariga asosan amalga oshiriladi.

Banklar tizimida buxgalteriya hisobini yuritish ishini to‘g‘ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki buxgalteriya hisobi va nazoratning puxta yo‘lga qo‘yilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini ta‘minlaydi. Buning buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini yaxshi bilishlari talab qilinadi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, u O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi.

Tijorat banklari tomonidan buxgalteriya hisobi, ular O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tkazilgan vaqtdan boshlab, qayta tashkil etilguncha yoki tugatilguncha qadar uzluksiz ravishda yuritiladi.

Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qat‘iy rioya qilishlari zarur.

Tijorat banklarida hisob-kitob ishlari ular vujudga kelgan davrdan boshlab amalga oshiriladi. Hisob-kitob ishlari davrlar osha rivojlanib, takomillashib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tijorat banklarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish va uni takomillashtirishda bir qancha amaliy ishlar amalga oshirildi.

Tijorat banklari buxgalteriya hisobini takomillashtirish ilg‘or chet el tajribalaridan foydalangan holda va respublikamiz qonunlariga asosan amalga oshirilmoqda. Jumladan, banklarda buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarga

muvofoiq olib borilmoqda. Bu esa banklarni rivojlanishia muhim omil bo'lib hizmat qiladi.

Shunisi ahamiyatliki, banklarda buxgalteriya hisobini to'g'ri yuritilishi buxgalterlarga bog'liq. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritishda buxgalter-xodimlar o'z ishlariga mas'uliyat bilan yondoshishlari lozim.

Tijorat banklarida hisob-kitob ishlari amalga oshirilar ekan, asosiy e'tibor, ularning daromadlari va xarajatlarini hisobini yuritishga katta e'tibor beriladi.

Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlar hisobi buxgalteriya "Balans hisoboti" va "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotlarida aks ettiriladi.

Tijorat banklarini iqtisodiyotda tutgan o'rnini aniq belgilab va izohlab bergan taniqli olim O.I.Lavrushin hisoblanadi. Lavrushin o'z izlanishlarida daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishda asosan foizli daromadlar va xarajatlarga alohida ahamiyat berilishi kerakligini aytib o'tadi.²

Respublikamizdagi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ma'lum bir me'yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini amalga oshirishdagi asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnoma hisoblanadi.

Tijorat banklarida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni hisobga olish quyidagi me'yoriy hujjatlarga asosan amalga oshiriladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2008 yil 11 iyulda 1834-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga asosan buxgalteriya hisobi yuritiladi:

² Лаврушин О.И. "Банковское дело", Москва, Финансы и статистика – 2001, 181-бет.

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 3 sentyabrda 1270-son bilan ro'yxatga olingan "Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to'g'risida"gi nizomga asosan bankning hisob siyosati ishlab chiqiladi:
3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1300-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida grantlarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi nizomga asosan grantlarni hisobi yuritiladi:
4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 21 yanvarda 1301-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan xatolarga tuzatishlar kiritiladi:
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 30 yanvarda 1306-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi nizomga asosan kreditlarga foizlar hisoblandi:
6. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1431-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida qimmatbaho metallar, toshlar va tangalarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan buxgalteriya hisobi yuritiladi:
7. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 17 dekabrda 1434-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomaga asosan asosiy vositalar hisobi yuritiladi:
8. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 15 iyulda 1496-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi yo'riqnomaga asosan kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning hisobi yuritiladi:
9. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 30 noyabrda 1528-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida" nizomga asosan moliyaviy aktivlar hisobi yuritiladi:

- 10.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 24 iyulda 1602-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi banklarida kassa amallarining buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari"ga asosan kassa amallarining hisobi yuritiladi:
- 11.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 27 dekabrda 1648-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida" nizomga asosan lizing operatsiyalari hisobi yuritiladi:
- 12.Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi 195-son qaroriga 3-ilova "Tijorat banklari tomonidan Imtiyozli kredit berish maxsus jamg'armasini shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan jamg'arma shakllantiriladi:
- 13.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999 yil 11 fevralda 632-son bilan ro'yxatga olingan "Aktivlar sifatini tasniflash, tijorat banklari tomonidan ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish va undan foydalanish" tartibiga asosan ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantiriladi :
- 14.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2005 yil 18 yanvarda 1445-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan hisobotlar shakllantiriladi:
- 15.O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000 yil 3 avgustda 953-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan faktoring operatsiyalari yuritiladi.

II-BOB. DAT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA ZARARLAR HISOBI UNING TAXLILINI TASHKIL ETISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

2.1. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zararlarni tavsifi hamda ularni aniqlash tartibi.

O’zbekistonning bugungi iqtisodiy vaziyatida banklar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki banklar hukumatning iqtisodiy siyosatini izchillik bilan va aniq maqsadni ko’zlagan holda amalga oshiradi. Ular bu ishda boshqa har qanday moliyaviy institutlar qaraganda ko’proq yordam bermoqda. Banklar tadbirkorlarga va mahsulot ishlab chiqaruvchilarga kreditlar berish, xilma-xil xizmatlar ko’rsatish orqali ularga yuqori darajada foyda olish imkoniyatini yaratadi. Ular bu bilan respublikaning butun iqtisodiyotini rivojlantirmoqdalar.

Hozirgi sharoitida banklar iqtisodiyotda pul munosabatlarini tizimli boshqaruvchi yagona sub’ektdir. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida barcha muhim ahamiyat kasb etgan masalalar bank zimmasiga yuklatildi. Yangi tashkil etilayotgan korxonalarni moddiy jihatdan ta’minlash, ya’ni kreditlar berish, naqd pulga bo’lgan ehtiyojini qondirib berish shular jumlasidandir. Shunday ekan, banklar faoliyatini yaxshilash va kengaytirish hamda barqarorligini ta’minlashda banklar foydalar va zararlari muhim omil bo’lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda respublikamizda tijorat banklarining o’rni kuchayib bormoqda. Tijorat banklari yuqori daromad olish maqsadida o’z faoliyat doirasini kengaytirmoqdalar. Ular o’z aktivlarini to’g’ri joylashtirish va daromad olishning boshqa imkoniyatlarini qidirib topishga xarakat qilmoqdalar.

SHu boisdan ham, rivojlangan xorijiy davlatlarda kredit operatsiyalari tijorat banklari aktiv operatsiyalarining asosiy turi hisoblanadi. Masalan, XX asrning 80 yillari oxiri va 90 yillari boshlarida AQSH tijorat banklarining kredit operatsiyalari ularning aktiv operatsiyalarining asosiy 60 foizini tashkil qilgan. Bu ko’rsatkich Buyuk Britaniyada 63,5 foiz, Gollandiyada 47,1 foiz, Germaniyada 53 foiz,

Daniyada 56 foiz, Frantsiyada 65,6 foiz, Ispaniyada 66,4 foiz, Italiyada 47,8 foizni tashkil qilgan.³

Foizli daromadlarning ikkinchi turi qat'iy belgilangan stavkadagi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan keladigan daromadlardir. Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotida mazkur investitsiyalarning asosiy qismini hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar tashkil etadi. Masalan, hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning bank aktivlari umumiy hajmidagi salmog'i Ispaniya tijorat banklarida 10,2 foizni, Frantsiya tijorat banklarida 9,4 foizni, Italiya tijorat banklarida 5,3 foizni tashkil etadi.⁴

Respublikamiz bank amaliyotida tijorat banklarinnig faoliyati natijasida oladigan daromadlarini asosan 2 guruhga ajratish rasmiy qabul qilingan:

1. foiz daromadlar.
2. foizsiz daromadlar.

Foizli daromadlarga asosan quyidagilar kiritiladi:

- ssudalar bo'yicha olinadigan daromadlar;
- qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlar;
- investitsiyalar bo'yicha daromadlar.

Foizsiz daromadlarga asosan quyidagilar kiritiladi:

- chet el valyutasidan foyda;
- tijorat operatsiyalaridan foyda;
- investitsiyalardan olinadigan foizsiz daromadlar.

Bank faoliyatining asosiy tavsifi sifatidan uning daromad keltiruvchi aktivlari, ya'ni kredit qo'yilmalari hisoblanadi. Bankning daromad keltiruvchi aktivlari qanchalik ko'p bo'lsa, bank investorlar uchun shunchalik jozibador bo'ladi va bankning daromatlari o'sib boradi. Bankning daromad keltiruvchi aktivlari u o'tkazayotgan xo'jalik muomalalariga bog'liq.

³ Матвиев О.В. Управление активами коммерческого банка – ДИК-№5, 2001, 55-59 бетлар.

⁴ Лаврушин О.И. "Банковское дело" Москва. 2005, 47-бет.

Tijorat banklari faoliyatini moliyaviy ahvolini, ularning barqarorlik ko'rsatkichi, ya'ni bank kapitali bilan barcha daromad keltiruvchi aktivlar ko'rsatkichlari aktivlar ko'rsatkichlari aniq namoyon qilib ko'rsatiladi.

Tijorat banklarining foizli daromadlari summasidan foizli xarajatlari summasini ayirib tashlasak, u holda, sof foizli daromad ko'rsatkichi yuzaga keladi. Sof foizli daromad summasining bank aktivlari o'rtacha summasiga nisbati sof foiz marjasi deb ataladi. Bu ko'rsatkich bankning foizli daromadlari darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omil hisoblanadi.

Banklarni xarajatlarini ikki guruhga ajratib o'rganishning zurligi shundaki, tijorat banklarida yalpi xarajatlarning asosiy qismi foizli xarajatlarga to'g'ri keladi.

Foizli xarajatlarning yalpi xarajatlar hajmida yuqori va barqaror salmoqqa ega ekanligi tijorat banklari resurs bazasining barqarorligini ta'minlashnnig zurliy shartidir.

Ayrim mamlakatlar bank amaliyotida iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan tijorat banklari xarajatlarini bir necha guruhlariga ajratib o'rganiladi. Masalan, taniqli olim, professor O.I.Lavrushinning "Bankovskoye delo" kitobida tijorat banklarining xarajatlari olti guruhga ajratilgan:⁵

1. Operatsion xarajatlar.
2. Bank xo'jalik faoliyatini ta'minlash xarajatlari.
3. Mehnatga haq to'lash xarajatlari.
4. Soliqlar to'lash xarajatlari.
5. Zaxira ajratmalari.
6. Boshqa xarajatlar.

Respublikamiz tijorat banklarining foizli xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiritilgan:

- transaksion depozitlarga to'langan foizlar;
- jamg'arma depozitlariga to'langan foizlar;
- muddatli depozitlarga to'langan foizlar;
- Markaziy bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha foizlar;

⁵ O.I.Lavrushin "Банковское дело". Москва, Финансы и статистика, 2001, 119 бет.

- bankning boshqa banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha foizlar;
- olingan kreditlar bo'yicha to'langan foizlar;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha to'langan foizlar;
- boshqa foizli xarajatlar.

Respublikamiz tijorat banklari foizsiz xarajatlariga quyidagi xarajat turlari kiritilgan:

- komission xarajatlar;
- xorijiy valyutadagi zararlar;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish hisobvaraqlari bo'yicha zararlar;
- investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;
- boshqa foizsiz xarajatlar.

Respublikamiz tijorat banklarining operatsion xarajatlariga quyidagi xarajat turlari kiritilgan:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar;
- ijara to'lovlari;
- transport va safar xarajatlari;
- ma'muriy xarajatlar;
- xayriya xarajatlari;
- amortizatsiya xarajatlari;
- sug'urta, soliqlar va boshqa xarajatlar.

Bizning fikrimizcha, tijorat banklari xarajatlarini ikki yirik guruhga, ya'ni foizli va operatsion xarajatlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq, bank xarajatlarini bir necha guruhlariga ajratish esa, amaliy ahamiyatga ega emas. DAT "Asakabank" Farxod filialida ham xarajatlarni ikki guruhga bo'lishni amalga oshirdik.

Hozirgi vaqtda, g'arb iqtisodiy adabiyotlarida tijorat banki xarajatlarini ichki taqsimlash masalasini ilmiy asosda o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunda asosiy e'tibor bankning har bir funksional va hududiy bo'linmasining yalpi foydani yuzaga keltirishdagi ishtirokini va yalpi xarajatlardagi salmog'ini aniq

belgilashga qaratiladi. SHunisi harakterliki, tijorat banklarining bevosita foyda keltiradigan bo'linmalari faoliyatining samaradorligini ta'minlaydigan, lekin o'zi daromad keltirmaydigan bo'linmalarining oqilona xarajatlari miqdorini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday bo'linmalar majmui xarajat markazlari (HM) deb ataladi.

2.2.DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda hisobini tahlili.

O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi Qonuniga asosan tijorat banklarining asosiy maqsadi – foyda olishdir. Tijorat banklari o'z faoliyatlari davomida juda ko'plab mijozlarga xizmat ko'rsatadi, turli xil operatsiyalarni bajaradi, bir qator xarajatlarni amalga oshiradi. Buning natijasida ma'lum miqdorda daromad oladi.

Shunday qilib, har bir tijorat banki o'z faoliyatini olib borishdan maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan bo'lib, o'z daromadlarini ko'paytirish yo'llarini tijorat banklari mustaqil ravishda belgilaydilar.

Tijorat banklarining daromadlari mijozlarga qisqa va uzoq muddatlarga berilgan kreditlar bo'yicha olinadigan foizlar, kreditlarning o'z muddatida qaytarilmagani uchun mijozlardan shartnomada ko'rsatilgani bo'yicha olinadigan yuqori stavkadagi foizlardir. Banklarning bu daromadlari barcha daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi.

Bundan tashqari, tijorat banklari mijozlariga talab qilinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlari, muddatli, jamg'armali depozit hisobvaraqlari, valyuta va boshqa hisobvaraqlar ochadi va yuritadilar. Bu hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida mijozlarga turli xil xizmatlar ko'rsatib tegishli ravishda haq oladilar. Bu xizmatlari uchun oladigan daromadlari ko'pincha tijorat banki va mijoz o'rtasida hisobkitob yoki boshqa hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatish to'g'risidagi o'zaro tuzilgan shartnomada belgilanadi.

Tijorat banklari kutilmagan daromadlar ham ko'rishi mumkin. Bunday daromatlarga bank kassalaridagi naqd pul mablag'larining ortiqcha chiqqan qismi, qarzdorlardan undirilgan turli jarima va penyalar, banklarning asosiy vositalarini tugatish yoki sotishdan olgan daromadlari kiradi.

Shunday qilib, tijorat banklarning daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, tijorat banklari amalga oshiradigan operatsiyalar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqish mumkin.

Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasiga asosan bankning barcha daromadlarini foizli, foizsiz va boshqa daromadlarga bo'lish mumkin.⁶

Foydaning asosiy manbasi daromad bo'lganligi va banklar faoliyatining asosiy ko'rsatkichi daromadlar sanalganligi sababli, ishda foydaning asosi bo'lgan daromadlar hisobi haqida alohida to'xtalib o'tdik. Daromadlar-bu bankning odatdagi faoliyati natijasi sifatida iqtisodiy resurslarning yoxud aktivlarning okib kelishi yoki usish yo'li orqali, yoxud Majburiyatlarning qisqarishi yo'li orqali usishidir, masalan tovarlarning sotilishi, xizmatlar ko'rsatilishi, yoki boshqa sub'ektlar tomonidan korxonaning foizlar, ijara to'lovi, dividendlar yoki imtiyozlar keltiradigan resurslardan foydalanishi.

BXXS (buxgalteriya hisobining xalkaro standartlari) tan olishni moddaning bank moliyaviy hisobotlariga kiritilishi jarayoni deb ta'riflaydiyu Tan olish ko'rsatilgan summani hisobotning yakuniy ko'rsatkichlarida aks ettirishdan iboratdir.

Banklarning daromadlari ularning xarajatlarini qoplaydigan asosiy manbaa hisoblanadi.

DAT “Asakabank” Farxod filiali daromadlari asosan ikki manbadan tashkil topadi:

1. Foizli daromadlar.
2. Foizsiz daromadlar.

Foizli daromadlar qo'yidagicha turkumlanadi.

1. Berilgan qarzlar bo'yicha foiz daromadlari.
2. Korschyotlar bo'yicha foiz daromadlari.
3. Qimmatbaho qog'ozlarni sotish bo'yicha foiz daromadlari.
4. Investitsiyalar bo'yicha foiz daromadlari.
5. Boshqa foiz daromadlari.

Foizsiz daromadlarni qo'yidagicha turkumlash maqsadga muvofiqdir.

1. Komissiya va xizmatlardan olingan daromadlar.

⁶ К.Н.Наврўзова. “Банкларда бухгалтерия ҳисоби ва операцион техника” Т.молия институти. Ўқув кўланмаТ-2010. 218-бет

2. Chet el valyutasidagi foyda.
3. Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda.
4. Investitsiyadan olingan foyda va dividendlar.
5. Boshqa foizsiz daromadlar.

DAT «Asakabank» Farxod filialining daromad va foydalarini to'g'ri hisobga olish va moliyaviy hisobot shakllarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuini shakllantirishda buxgalteriya hisobi alohida ahamiyatga ega.

Buxgalteriya hisobining amaldagi schyotlar rejasida bank daromadlarini hisobga olish uchun alohida to'rtinchi bo'lim schyotlari tayinlangan bo'lib, ularda bank daromadlari turlari bo'yicha hisobga olinadi.

40000 Daromadlar

40200-MBdagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar

40400-Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar

40600-Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar

40700-Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar

40800-Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar

41000-Mijozlarning majburiyatlari bo'yicha hisoblangan foizlar

41200-Bankning to'lanmagan aktseptlari yuzasidan mijozlar majburiyatlari bo'yicha foizli daromadlar

41400-MBga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

41600-Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

41800-Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

41900-Byudjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatlikreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42000-Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42100-Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42200-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42300-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42400-CHet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42500-Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

42600-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar

43100-Respublika korxonalariga berilgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo'yicha foizli daromadlar

43600-Byudjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

43700-Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

43900-Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44000-Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44100-Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44200-Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44300-Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44400-Davlat korxona, tashkilot va muassasalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44500-Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar

44600-Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
44700-Sud jarayonidagi kreditlar bo'yicha foizli daromadlar
44800-So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar
44900-Boshqa foizli daromadlar
45000-Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar
45100-Lizing (Moliyaviy ijara) bo'yicha foizli daromadlar
45200-Foizsiz daromadlar
45400-Xorijiy valyutalardagi foyda
45600-Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda
45700-Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va sho''ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan olingan foyda va dividendlar
45800-Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar
45900-Boshqa foizsiz daromadlar

Yuqorida keltirilgan schyotlarning nomlanishining o'ziyoq bank faoliyatining asosiy daromadlaridan biri bo'lgan qisqa muddatli bank kreditlaridan olinadigan foiz daromadlarini hisobga olinishini ko'rsatadi. Bundan tashqari ushbu schyotlarda tijorat bankining O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarda sanalayotgan pul mablag'laridan olinadigan daromatlari, SHuningdek, qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi natijasida tijorat banki oladigan daromadlar ham hisobga olinadi. Ushbu schyotlar passiv schyotlar bo'lib ularning kreditida olinadigan daromad hisobga olinadi.

Ushbu schyotlarning debetiga esa qachonki olingan daromad foyda tarkibiga o'tkazilganda yoziladi. SHuningdek, ushbu schyotning debetiga olinadigan foiz daromatlari noto'g'ri hisoblanganda ham yoziladi. Ushbu schyotlarning qo'llanilishini qo'yidagi misol asosida tushuntirish mumkin.

Agar DAT «Asakabank» Farxod filiali o'z mijozi qo'shma korxonaga 1000000 so'm qisqa muddatli kredit berdi. Qaytarish muddati 6 oy. Bir yilga 20%.

Bankning yillik foiz daromadi 200000 so'm 6 oyga 100 000 sum va bir oyga 16600 sum. Xar oyning oxirgi kuniga 16600 so'm foiz daromadi sifatida tan olinishi zarur.

Ushbu daromad tan olinganda qo'yidagicha buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt 16309 - Qarzlarni bo'yicha olishga tegishli hisoblangan foizlar 16600 so'm.

Kt 42400 - Qo'shma korxonalarga berilgan qisqa muddatli qarzlarni bo'yicha foiz daromadlari 16600 sum

Endi ushbu hisoblangan foiz summasi sof foyda tarkibiga o'tkazilganda qo'yidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt 42400 - Qo'shma korxonalarga berilgan qisqa muddatli qarzlarni bo'yicha foiz daromadlari 16600 sum

Kt 31206 - Sof foyda 16600

Agar ushbu hisoblangan foiz daromadlari DAT «Asakabank» Farxod filialiga to'lansa unda:

Dt 20214 - Qo'shma korxonalarning hisob qilib olguncha bo'lgan depozit schyotlari 16600

Kt 16309 - Qarzlarni bo'yicha olishga tegishli hisoblangan foizlar 16600

Moboda tijorat banki qarzlarni boshqa banklarga bersa unda hisoblangan foizlar kelib tushganda qo'yidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt 10300 - O'RMB tijorat bankining korxona schyoti

Kt 16309 - Qarzlarni bo'yicha olishga tegishli hisoblangan foizlar.

Hisoblangan foiz summasiga DAT «Asakabank» Farxod filialida qo'yidagi buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi:

Dt 16311 - Investitsiyalar va boshqa qarz instrementlari bo'yicha hisoblangan foizlar

Kt 44800 - Investitsiyalar bo'yicha foiz daromadlari.

Foiz summasi foyda tarkibiga o'tkazilganda:

Dt 44800 - Investitsiyalar bo'yicha foiz daromadlari

Kt 31206 - Sof foyda.

Shuningdek, banklar faoliyatida foizsiz va boshqa foizsiz daromadlar izilarli solmokka ega bo'lmada ular bilan bog'liq muomalalar uchray turadi. Ushbu daromatlarni hisobga olish uchun 45200 - foizsiz daromadlar va 45800 - Boshqa foizsiz daromadlar schyotlari tayinlangan. Ushbu foizsiz daromadlar tan olinganda DAT «Asakabank» Farxod filialida qo'yidagi, buxgalteriya o'tkazmasi tuziladi.

Dt 16397 - Mijozlarning boshqa Majburiyatlari bo'yicha olishga tegishli hisoblangan foizlari

Kt 45200 - foizsiz daromadlar

Kt 45900 - Boshqa foizsiz daromadlar

Ushbu foizsiz daromadlar DAT «Asakabank» Farxod filialining sof foydasi tarkibiga o'tkazilganda:

Dt 45200 - foizsiz daromadlar

Dt 45900 - Boshqa foizsiz daromadlar

Kt 31206 - Sof foyda

Shunday qilib, banklar faoliyatida olinadigan daromad va foydalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida yuqorida keltirilgan tartibda aks ettirilishi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talabi darajasida tashkil qilishni ta'minlaydi va banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun zarur ma'lumotlar majmuining vujudga keltiradi.

Quyidagi jadvalda esa DAT «Asakabank» Farxod filialining 2013 va 2014 yilgi «Foyda va zararlar to'g'risida»gi hisobotni tahlil qilinadi:

Quyidagi 1-sonli javdaldan shun narsa ko'rinib turibdiki, 2013 yilda filial jami 4 964 035,6 ming so'mlik daromad olingan bo'lsa, shundan foizli daromadlar 3 162 894,9 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, yoki jami daromadni 63,7 foizini tashkil qilgan. Shuningdek foizli daromadlar 1 801 140,7 ming so'mni tashkil qilgan bo'lib, yoki jami daromadni 36,3 foizini tashkil qilgan.

Foizli daromatlarni to'liq tahlil qilamiz, jami foizli daromadlar 3 162 894,9 ming so'm topilgan bo'lib, shundan kreditlar bo'yicha foizli daromadlar 3 100 784,6 ming so'm yoki jami foizli daromadni 98,0 foizini va boshqa foizli daromadlar 62 110,3 yoki jami foizli daromadni 2,0 foizini tashkil qilgan.

1-jadval


DAT "Asakabank" Farxod filialining 2013 yilgi "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning daromadlar qismi to'g'risida.

(ming so'm)

T/r	Moddalar	Joriy yil 31.12.2013	Nisbatai yil 31.12.2013
1	Foizli daromad	3 162 894,9	63,7
2	Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	3 100 784,6	98,0
3	Boshqa foizli daromadlar	62 110,3	2,0
4	Moliyaviy lizing (Ijara)	0,0	0,0
5	Jami: foizli daromadlar	1 801 140,7	36,3
6	Foizsiz daromad	1 676 777,3	93,1
7	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)	81 981,9	4,6
8	Boshqa operatsion daromadlar	42 381,5	2,4
	Jami daromadlar	4 964 035,6	100,0

Foizsiz daromadlarni to'liq tahlil qilamiz, jami foizli daromadlar 1 801 140,7 ming so'm topilgan bo'lib, shundan foizsiz daromadlar 1 676 777,3 ming so'm yoki jami foizsiz daromadni 93,1 foizini, valyuta operatsiyalardan olingan foizsiz daromadlar 81981,9 ming so'm yoki jami foizsiz daromadni 4,6 foizini va boshqa operatsion daromadlar 42 381,5 ming so'm yoki jami foizsiz daromadni 2,4 foizini tashkil qilgan.

Endi esa yuqorida keltirilgan 1-jadvalni diagrammada aks ettiramiz.



DAT “Asakabank” Farxod filialining 2014 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotning daromadlar qismi to’g’risida.

(ming so’m)

T/r	Moddalar	Joriy yil 31.12.2014	Nisbatai yil 31.12.2014
1	Foizli daromad	4 040 733,8	68,2
2	Kreditlar bo’yicha foizli daromadlar	3 906 286,6	96,7
3	Boshqa foizli daromadlar	88 037,4	2,2
4	Moliyaviy lizing (Ijara)	46 409,9	0,0
5	Jami: foizli daromadlar	1 886 344,8	31,8
6	Foizsiz daromad	1 686 963,3	89,4
7	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)	101 732,7	5,4
8	Boshqa operatsion daromadlar	97 648,8	5,2
	Jami daromadlar	5 927 078,6	100,0

YUqoridagi 2-sonli javdaldan shun narsa ko’rinib turibdiki, 2014 yilda filial jami 5 927 078,6 ming so’mlik daromad olingan bo’lsa, shundan foizli daromadlar 4 040 733,8 ming so’mni tashkil qilgan bo’lib, yoki jami daromadni 68,2 foizini tashkil qilgan. SHuningdek foizli daromadlar 1 886 344,8 ming so’mni tashkil qilgan bo’lib, yoki jami daromadni 31,8 foizini tashkil qilgan.

Foizli daromadlarni to’liq tahlil qilamiz, jami foizli daromadlar 4 040 733,8 ming so’m topilgan bo’lib, shundan kreditlar bo’yicha foizli daromadlar 3 906 286,6 ming so’m yoki jami foizli daromadni 96,7 foizini, moliyaviy ijara bo’yicha 46 409,9 ming so’m yoki jami foizli daromadni 0,1 foizini va boshqa foizli daromadlar 88 037,4 yoki jami foizli daromadni 2,2 foizini tashkil qilgan.

Foizsiz daromadlarni to’liq tahlil qilamiz, jami foizli daromadlar 1 886 344,8 ming so’m topilgan bo’lib, shundan foizsiz daromadlar 1 686 963,3 ming so’m yoki jami foizsiz daromadni 89,4 foizini, valyuta operatsiyalardan olingan foizsiz daromadlar 101 732,7 ming so’m yoki jami foizsiz daromadni 5,4 foizini va boshqa operatsion daromadlar 97648,8 ming so’m yoki jami foizsiz daromadni 5,2 foizini tashkil qilgan.

Endi esa yuqorida keltirilgan 2-jadvalni diagrammada aks ettiramiz.



2.3.DAT “Asakabank” Farxod filialida xarajatlar (zararlar) hisobini tahlili.

Banklarning xarajatlari- bu bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan **foizli va foizsiz hamda bank operatsion** xarajatlaridan tashkil topadi. Ushbu xarajatlarning barchasi buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi 50000- «Xarajatlar» hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi.

Bankning foizli xarajatlariga quyidagi operatsiyalar bo'yicha hisoblangan foiz to'lovlari kiradi: talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarning turlari bo'yicha foizli xarajatlari, O'zbekiston respublikasi markaziy bankining hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari, boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlari, qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlari, chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlari, boshqa foizli xarajatlardir.

Foizsiz xarajatlarga esa, O'zbekiston respublikasi markaziy bankiga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, boshqa banklarga to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, qimmatbaho metallar, toshlar va tangalar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari, sotib olingan veksellar bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari, akkreditivlar va aktseptlar bo'yicha to'lanadigan xizmat hamda vositachilik xarajatlari, overdraft bo'yicha xarajatlari, kreditlar bo'yicha vositachilik xarajatlari, kredit majburiyatlari bo'yicha xarajatlari, menejment bo'yicha xarajatlar, sindikat kreditlarda qatnashish bilan bog'liq xarajatlar, mahalliy to'lovlar bo'yicha va vositachilik xarajatlari, xorijiy to'lovlar bo'yicha va vositachilik xarajatlari, inkasso operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari, kafolat va kafillik operatsiyalarini amalga oshirish bo'yicha va vositachilik xarajatlari, boshqa vositachilik va xizmat xarajatlari, boshqa foizsiz xarajatlari, ya'ni bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlari, bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar va boshqa zararlari kiradi.

Bankning operatsion xarajatlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin; bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlari, ijara va ta'minot xarajatlari, xizmat safarlari va transport xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, representatsiya va xayriya xarajatlari, eskirish xarajatlari, sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar va ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatlari hamda daromad solig'ini baholashdan iboratdir.

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalari doirasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignatsiyalari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrigacha o'tkazilishi lozim.

Tijorat banklar o'z operatsion xarajatlarini bank Boshqaruvi tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta doirasida amalga oshiradilar.

Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo'yicha mablag'larni bank rahbari tasarruf etadi. Bank rahbari bank bo'yicha buyruq chiqarib, smeta xarajatlarini tasarruf etish huquqini o'z o'rinbosariga ishonib topshirishga haqlidir. Bank Boshqaruvi raisi ham buyruq chiqarib smeta bo'yicha xarajatlarni tasarruf etish huquqini o'zining birinchi o'rinbosariga berishi mumkin. Biroq, smeta bo'yicha xarajatlarni tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berib qo'yish bilan bank Boshqaruv raisini uning smeta intizomi ahvoli uchun qonunda belgilangan shaxsiy javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Tijorat banklarining xarajatlari, bank faoliyatini amalga oshirish jarayonida amalga oshirilgan foizli va foizsiz hamda bank operatsion xarajatlaridan tashkil topadi. Ushbu xarajatlarning barchasi buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi 50000- «Xarajatlar» hisobvaraqlarida hisobga olib boriladi.

Bank o'z faoliyatini to'laqonli yuritishi uchun xarajatlar qiladi. **Tijorat banklarining barcha xarajatlarini 3 guruhga bo'lish mumkin. Bular:**

- foizli xarajatlar;
- foizsiz xarajatlar;
- operatsion xarajatlar.

Foizli xarajatlar barcha majburiyatlar bo'yicha mijozlarga va boshqa banklarga to'langan foizlar summasidan tashkil topadi.

Tijorat banklari o'z kredit resurslari tashkil etish maqsadida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar, jamg'armali hamda muddatli depozitlar qabul qiladi. Ushbu depozitlarga banklar tomonidan ma'lum miqdorda belgilangan stavkada foiz ko'rinishida to'lov to'laydilar.

Banklar foizli xarajatlarning yana biri tijorat banklarining kredit operatsiyalari bilan bog'liq. Chunki tijorat banklari eng ko'p Markaziy Bankdan, boshqa tijorat banklaridan, budjetdan tashqari fondlardan, nobank moliya institutlaridan kreditlar olishi mumkin. Olgan kreditlar uchun to'lanadigan foiz summaları foizli xarajatlarga kiradi.

Bank xarajatlarning salmoqli qismi foizsiz xarajatlarga to'g'ri keladi. Banklarning foizsiz xarajatlarga bank xodimlariga maoshlar va qo'shimcha to'lovlar, xizmat safari xarajatlari, asbobuskuna yoki binolarni ijaraga olish, xarid qilish xarajatlari kiradi. Banklar O'zbekiston Respublikasi Pensiya fondiga, O'zbekiston Respublikasi Aholini ish bilan ta'minlash davlat fondiga, O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy sug'urta fondiga o'tkaziladigan majburiy ajratmalar, jumladan bank xodimlariga mukofot hamda ko'p yil ishlaganlik uchun yoziladigan qo'shimcha yoki ustama to'lovlarni amalga oshiradi.

Bank tomonidan pensiya fondlariga, ixtiyoriy tibbiy sug'urta va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlari uchun o'tkazgan ajratmalari, qonunlarga muvofiq bank mulkini va bank xodimlarini davlat sug'urtasidan o'tkazish bo'yicha to'lovlar ham bankning foizsiz xarajatlarga kiradi.

Bundan tashqari, banklarning foizsiz xarajatlarga bank sohasida malakali kadrlar tayyorlashda, ularning malakasini oshirish uchun sarflaydigan xarajatlari kiradi. Tijorat banklari oliy o'quv yurtlari bilan kelishilgan shartnomadagi mablag'larni to'lab bank sohasiga malakali kadrlar tayyorlash, Mintaqaviy o'quv markaziga va boshqa malaka oshirish institutlariga bank xodimlari malakasini oshirish bo'yicha xizmatlari uchun haq to'laydi.

Bundan tashqari, banklar qantselyariya tovarlari, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni, maxsus adabiyotlar sotib olish, shuningdek bank faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'ladigan maxsus nashrlarga obuna bo'yicha qilinadigan xarajatlari mavjud bo'lib, ular ham foizsiz xarajatlardir.

Shunday qilib, banklar o'z faoliyati davomida operatsiyalarni bajarishda turli xil xarajatlar qiladi.

Bank xarajatlari balansning 50000 hisob raqami bilan yuritiladi. Bu hisob raqam bir qancha hisob raqamlarni o'z ichiga oladi.

Tijorat banlarda quyidagi turdagi xarajatlar (zararlar) mavjud:

- 50100 Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 50600 Jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 51100 Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 51600 MBning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
- 52100 Boshqa banklarning hiobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar
- 52600 Bankning to'lanmagan aktseptlari bo'yicha foizli xarajatlar
- 53100 Qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 54100 Uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 54200 Chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar
- 54300 Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar
- 54900 Boshqa foizli xarajatlar
- 55100 Foizsiz xarajatlar
- 55300 Xorijiy valyutalarda ko'rilgan zararlar
- 55600 Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zararlar
- 55700 Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalarga va sho''ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan ko'rilgan zararlar
- 55800 Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar
- 55900 Boshqa foizsiz xarajatlar
- 56100 Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar

- 56200 Ijara va ta'minot xarajatlari
- 56300 Xizmat safari va transport xarajatlari
- 56400 Ma'muriy xarajatlar
- 56500 Reprezentatsiya va xayriya
- 56600 Eskirish xarajatlari
- 56700 Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar
- 56800 Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash
- 56900 Foyda solig'ini baholash

Endi xarajatlar bo'yicha bir necha buxgalteriya provodkalarini ko'rib chiqamiz.

Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomalar asosida foizlar hisoblanadi. Hisoblangan foizlar bo'yicha buxgalteriya provodka quyidagicha bo'ladi:

Debet – 50100 (50600, 51100) Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar. (Jamg'armali va muddatli...).

Kredit – Mijoz hisob raqami yoki bankning mijoz oldidagi majburiyatlari hisob raqami.

Hisobot yili oxirida bu xarajatlar daromad hisobidan qoplanadi:

Debet – 31206 Sof foyda (yoki zarar)

Kredit – 50100 (50600, 51100). Talab qilib olinguncha saqlanadigan, yoki jamg'armali yoki muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar.

Bu hisob raqamlardan Markaziy bank hisob raqami yoki depozitlari qoldiq summalariga hisoblangan foizlar xarajat qilinib, buxgalteriya provodkasi quyidagicha bo'ladi:

Debet 51600

Kredit 10301

Bu xarajatlar yil oxirida foyda hisobidan qoplanadi, buxgalteriya provodkasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Debet–31206 Sof foyda (yoki zarar).

Kredit–51600 O'zR. Markaziy bankining hisobvarag'lari bo'yicha foizli xarajatlar.

Bu hisobvaraqlardan boshqa banklar vakillik va depozit hisobvaraqlari qoldiqlariga hisoblangan foizlar xarajat qilinib, yil oxirida bank foydasidan qoplanadi:

Debet – 52100 Boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Kredit – 10301 Bankning vakillik hisobvarag'i.

Xarajatni yopish quyidagi provodka orqali amalga oshiriladi:

Debet – 31206

Kredit – 52100

Boshqa foizli xarajatlar hisobvaraqlar rejasidagi 54902balans varag'ida yuritiladi. Bu hisobvarag'dan xarajat qilinsa, yil oxirida u ham foyda hisobidan, ya'ni 31206 hisob raqamidan yopiladi. Buning buxgalteriya provodkasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

Debet – 31206 Sof foyda (yoki zarar)

Kredit – 54902 Boshqa foizli xarajatlar

Bundan tashqari, yana juda ko'plab xarajatlar, ya'ni tijorat banklarining marketing, funksional xizmatlar haqini to'lash, qo'riqlash, yong'indan saqlash va aloqa vositalarini o'rnatish bo'yicha qilinadigan barcha ishlar foizli xarajatlarni tashkil etadi.

Umuman, bankning foizli xarajatlari buxgalteriya balansining 50100hisob raqamdan 54902hisob raqamgacha bo'lgan moddalarda yuritiladi.

Bankning faoliyatida foizli xarajatlar bilan birga foizsiz xarajatlari ham qilinadi. Foizsiz xarajatlar hisobi 55100, 55300, 55600, 55800, 55900 kabi hisob raqamlarida olib boriladi.

55100 – Ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission xarajatlar deb nomlanuvchi hisobvaraq 55102hisob raqamidan 55195 hisob raqamlarigacha bo'lgan hisobvaraq nomerlarini oladi. Bu hisobvaraq nomlarini hisobvaraqlar rejasidan ko'rib oling va

eslab qoling! eng katta foizsiz xarajatlarga komission xarajatlar kiradi. Komission xarajatlar – bank operatsiyalar uchun ko’rsatilgan xizmati doirasida to’lanadigan foizsiz xarajatlardir. Komission xarajatlar bilan bog’liq bunday to’lovlarda buxgalteriya provodkasi quyidagicha bo’ladi:

Debet – 55100 Muddatli depozitlar bo’yicha foizli xarajatlar.

Kredit – xizmat ko’rsatgan xo’jalik yurituvchi subekt daromad hisob raqami.

Yil oxirida bu foizsiz xarajatlar ham bankning foydasi hisobidan yopiladi. Bank chet el valyutasi bo’yicha operatsiyalarda zarar ko’rishi mumkin. Bular «Spot» shartnomasi bo’yicha zarar va Forvard» /Opsion/ shartnomalari bo’yicha zarar.

Chet el valyutasida zarar 55302 va 55306 hisob raqamlarda yuritiladi.

55302 – «Spot» bitimlari bo’yicha xorijiy valyutalarda ko’rilgan zarar.

55306 – Hosilaviy instrumentlar bilan tuzilgan bitimlar bo’yicha xorijiy valyutalarda ko’rilgan zarar.

Bunday hosilaviy instrumentlarga «Forvard» /Opsion/ Fyuchers shartnomalari bo’yicha operatsiyalar kiradi.

Demak, bu hisob raqamlar orqali spot, forvard, opsion, fyuchers shartnomalaridan ko’rilgan zararlar hisobi yuritiladi. Bu zararlar ham yil oxirida bankning foydasi hisobidan hisobkitob qilinadi.

Bank xarajatlarning katta qismini operatsion xarajatlar tashkil etadi. Banklar o’z operatsion xarajatlari ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar qilingan smeta ajratmalari chegarasida amalga oshiradilar. Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta mablag’lari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31dekabrigacha o’tkazib bo’linishi lozim.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi balansda «Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar», «Ijara va saqlash», «Ijara va saqlash», “Ma’muriy xarajatlar” va shu kabi hisobvaraqlarda yuritiladi:

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi – “Puli oldindan to’langan xarajatlar” hisobvarag’ida

yuritiladi. Bu hisobvaraqlar oxirida ta'tilga ketayotgan xodimlarga to'langan ish haqi, xususan, kelasi yilga taalluqli to'lovlar, kelasi yil uchun gazetalarga obuna bo'lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o'rni qoplanishi kerak bo'lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o'tkaziladi.

“Ish haqi” xarajatlari – 56102, “Bank xodimlari uchun imtiyozlar” bo'yicha xarajatlar – 56106, “Asosiy rahbar xodimlarga mukofotlar” – 56108, “Xizmat safari xarajatlari – 56302”, “Ijara va ta'minot xarajatlari” – 56200, “Xizmat safari va transport xarajatlari” – 56300 kabi hisobvaraqlarda yuritiladi. Xizmat safari vaqtidagi kundalik xarajatlar hisobi yuritiladigan shaxsiy hisobvaraqlar maxsus shakldagi bank xodimlari shaxsiy hisobvaraqlari yuritiladi.

Ish haqi bank xodimlariga faqat ishlangan vaqt uchun va belgilangan muddatlarda, oyiga ikki marta: oyning birinchi va ikkinchi yarmi uchun to'lanishi lozim. Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqining barcha turlari ish haqi fondiga kiritiladi.

Bank xodimlariga beriladigan mukofotlar 56106 – “Bank xizmatchilari uchun imtiyozlar” hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Bu xarajatlarning barchasi xodimlarni moddiy rag'batlantirish uchun qilinadi va yil oxirida foydadan qoplanadi:

Debet – 31206 Sof foyda (yoki zarar).

Kredit – 56102, 56106, 56195.....

56200 – Ijara va xo'jalik xarajatlari turlituman bo'ladi, ular yil oxirida bankning foydasi hisobidan yopiladi.

56300 – hisobvarag'ida bank xodimlarining safar va transport xarajatlari hisobga olib boriladi. Bu xarajatlar ham bank faoliyatining asosiy xarajatlaridan biri hisoblanib, yil oxirida foyda hisobidan yopiladi.

Debet – 31206 Sof foyda (yoki zarar).

Kredit – 56300 Xizmat safari va transport xarajatlari.

56400 – hisobvarag'ida hisobga olinadigan ma'muriy xarajatlari ham serqirra bo'lib, bu xarajatlarga bank faoliyatini reklama qilish, kanselyariya, ofis,

pochta, telefon, faks xizmatlaridan foydalanish, gazeta, jurnallarga obuna bo'lish, bank uchun zarur blankalarni bosmaxonadan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar kiradi. Bu xarajatlar ham yil oxirida bank foydasi hisobidan yopiladi.

Bank o'z faoliyati davomida soliqlar to'laydi, prezentatsiya ishlarini tashkil etadi, asosiy vositalarning eskirishini hisoblab borib, uni xarajatga o'tkazadi, sug'urta to'lovlarini to'laydi.

Yuqorida keltirilgan operatsion xarajatlarning hammasi yil oxirida bank foydasi hisobidan yopiladi.

Bankning operatsion xarajatlari bosh bank tomonidan belgilangan smetalar chegarasida amalga oshiriladi. Umuman, bank xarajatlari turlituman bo'lganligi sababli ularning barchasini keltirish qiyin, bunday xarajatlarning har bir turini bank amaliyotida batafsil o'rganish mumkin.⁷

Ish haqi to'lash bo'yicha belgilangan muddatlarda shaxsiy hisobva-raklarda oyning o'tgan yarmi uchun hisob-kitoblar to'ldiriladi. Hisob-kitob shaxsiy kompyuterda dasturiy yo'l bilan amalga oshiriladi va ushbu hisob-kitoblar asosida ish haqi berish uchun qaydnoma tuziladi.

Mehnat ta'tilga chiqayotgan xodimlarning ish haqi shaxsiy hisobvaraqlarda va qaydnomada to'lov davrlari bo'yicha alohida satrlarda yoziladi.

Oyning birinchi yarmi uchun ish haqi to'lash qaydnomasining umumiy yakunida "Beriladi" ustunida kassir nomiga "Ish haqi" degan tegishli shaxsiy hisobvaraq debeti bo'yicha kassa chiqim orderi yoziladi. Ushlanmalar summasiga ayni shu hisobvaraqlarning debeti va tegishli ushlanmalar hisobvarag'i krediti bo'yicha memopial order tuziladi.

Oyning ikkinchi yarmi uchun tuzilgan qaydnoma asosida ish haqi bo'yicha yozilgan butun summa oyning oxirgi kunida "Bank xizmatchilapining ish haqi va boshqa xarajatlar" bipinchi tartib hisobvarag'idagi tegishli hisobvaraqlar debetiga hamda "Boshqa kcreditoplik hisobvapaklapi" isobvarag'ining kreditiga kiritiladi. Bunda qaydnomaning "Beriladi" ustuni-dagi yakuniy summasi "Oyning ikkinchi

⁷ К.Н.Наврўзова. "Банкларда бухгалтерия ҳисоби ва операцион техника" Т.молия институти. Ўқув қўлланма Т-2010. 222-бет

yarmi uchun to'lanishi lozim bo'lgan ish haqi" nomli alohida shaxsiy hisobvaraqa yozib qo'yiladi. Keyingi oy boshida, o'tgan oyning ikkinchi yarmida ishlab topilgan ish haqini berish uchun ajratilgan kuni kassir nomiga yuqorida aytilgan shaxsiy hisobvaraqdagi summada kassa chiqim orderi yoziladi. Xodimlar tomonidan belgilangan to'lov kuni olingan ish haqi kun oxirida kassaga kirim qilinib, "Boshqa kreditoplik hisobvapaklapi" hisobvarag'ining kreditiga qo'yiladi va xar bir xodimga tegishli summalar "Berilmagan ish haqi bo'yicha deponentlar" nomli jamlama shaxsiy hisobvarag'iga yoziladi. Yirik banklarda raxbariyatning ruxsati bilan 3 (uch) kun davomida ish haqi berilishiga yo'l qo'yiladi. Kassir avansning qoldig'ini "Emissiya-kassa ishi, pul tushumlarini inkassatsiya qilish va O'zbekiston Respublikasi banklarida qimmatliklarni tashish to'g'risida"gi Yo'riknomaning 146-bandida belgilangan tartibda saqlashi lozim.

Ish haqi hisoblanayotganda ushlab qolingani summalarining hisobini yuritish uchun "Boshqa kreditorlik hisobvaraqlari" hisobvarag'ida ushlanmalarining har bir turi bo'yicha, uchinchi shaxslar foydasiga ushlanmalar bo'yicha esa ularning xar biriga alohida shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi. Ushlab qolingani summalar kimga tegishliligiga qarab, ish haqi to'lanadigan muddat kunida o'tkaziladi. Alohida fukarolar foydasiga undirilgan summalar, masalan, alimentlar oluvchilar bilan kelishib, ularga pochta orqali jo'natiladi yoki oluvchi ko'rsatgan bankdagi omonatlarga o'tkaziladi. Ushlanmalar naqd pul bilan to'lanadigan xollarda oluvchilar shaxsan o'zlari kelgunicha ushbu ushlanmalar "Boshqa debitorlik hisobvaraqlari" hisobvarag'ida saqlab turiladi.

Ishchi va xizmatchilarga hisoblangan ish haqining barcha turlari ish haqi fondiga kiritiladi.

Bank xodimlarini mukofotlash to'g'risidagi nizomlarga muvofiq ularga beriladigan mukofotlar 56106 - "Bank xizmatchilari uchun imtiyozlar" hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Ijtimoiy sug'urtaga badallar va ish haqi fondidan belgilangan miqdordagi nafaqa fondiga ajratmalarining hisobi 56114 - "Ijtimoiy sug'urta bo'yicha badallar" balans hisobvarag'ida yuritiladi. Kasaba uyushma- lari kengashi, bandlik fondi,

soglikni sug'urta qilish va boshqa tegishli fondlarga ajratiladigan badallarning hisobi 56122 - "Bandlik fondi va boshqa tegishli fondlar uchun badallar" balans hisobvarag'ida ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi. Mol-mulk sug'urtasi, yonginga karshi sug'urta va bankning xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa sug'urtalar bo'yicha badallarning hisobi 56710 - "Sug'urta xarajatlari" balans hisobvarag'ida yuritiladi.

Ijtimoiy sug'urtaga daxldor bo'lgan barcha toifadagi xodimlar ish haqi fondi (daromadi) bo'yicha belgilangan tarifga asoslangan xolda sug'urta badallari hisoblanadi.

Hisoblangan sug'urta badallari o'tkazilayotganda qo'yidagi qilingan xarajatlar chegirib qolinadi: pensiyalar, mehnatga vaqtincha layokatsizlik, omiladorlik va tugish nafaqalari, bola tugilganda beriladigan, dafn marosimi uchun beriladigan nafaqalar, bolalar uchun nafaqalar, xizmatchilar va ularning oila a'zolari sanatoriy-kurort xizmatlaridan foydalanishi uchun beriladigan nafaqalar. Hisobda xarajatlarning turlari, ishga layokatsizlik kunlarining soni va boshqalar aks ettiriladi.

Har chorakda hisobot - ijtimoiy sug'urta fondi mablag'lari bo'yicha hisob-kitob qaydnomasi tuziladi. Ayni Shunday hisobotlar pensiya fondiga, Ish bilan ta'minlash fondiga va kasaba uyushmalari qo'mitasiga ham yuboriladi.

Hisob-kitob qaydnomasi ma'lumotlariga qarab chorak davomida ijtimoiy sug'urtasiga o'tkazilgan to'lovlar qayta hisoblab chiqiladi. Bunda to'lanishi kerak bo'lgan badallar cummasidan bank o'tgan davr mobaynida qilgan xarajatlar summasi chegirib qolinadi.

Agar qayta hisoblash natijasida sug'urta badallari kam to'langani aniqlansa, u xolda to'lanmay qolgan summa hisobot bilan birga o'tkaziladi, basharti qayta hisoblash chogida ortiqcha pul to'lab yuborilgani ma'lum bo'lsa, u xolda shu summa miqdorida navbatdagi bo'nak to'lovi kamaytiriladi.

Amaldagi qonunlarga muvofiq, yosh mutaxassislariga ular oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tugatganidan keyin ta'til davri uchun to'lanadigan, xodim va uning oila a'zolari joylashib olishi uchun bir marta beriladigan nafaqalar summasi,

kundalik xarajatlar, xodim va uning oila a'zolari ko'chishga sarflaydigan pul qiymati "Xodimlar uchun boshqa xarajatlar" degan hisobvaraqdagi "Ko'chish" degan alohida shaxsiy hisobvaraqda hisobga olinadi.

Avtotransportdan foydalanish va uni joriy ta'mirlash xarajatlari, foydalanilgan yonilg'i qiymati hisobi "Transportni saqlash va shahar bo'ylab yurish" degan alohida shaxsiy hisobvaraqda yuritiladi. Bundan tashqari, mazkur shaxsiy hisobvaraqda markazlashtirilgan ta'minot anjomlarini viloyat doirasida tashish xarajatlari hisobi ham olib boriladi.

DAT «Asakabank» Farxod filiali reklama va e'lon berish, yozuv-chizuv anjomlari va ish joyi uchun buyumlar sotib olishga qiladigan xarajatlar, pochta, telefon hamda faks xarajatlari, davriy nashrlar, kitoblar, gazetalar uchun qiladigan xarajatlar hisobi "Ma'mo'riy xarajatlar" degan shaxsiy hisobvaraqda tegishli ikkinchi tartib hisobvaraqlarida yuritiladi. Bu hisobvaraqlar bo'yicha xarajatlar bosh bank belgilagan smetalar doirasida qilinadi.

Bank jo'natmalarini yuborish va boshqa xizmatlar uchun aloqa korxonalari bilan hisob-kitoblar respublika Aloqa vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, tuzilgan shartnomalar asosida bo'naklarni topshiriqnomaga bilan o'tkazish yoki tomonlap kelishuviga ko'ra bip oy yoki boshqa davp uchun aloqa korxonalari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun takdim etilgan to'lovnomalar pulini keyinchalik to'lash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Banklar BAM xizmatlari uchun to'lovni har oyning 25-kunida, bosh axborotlashtirish markazi takdim etgan to'lovnoma fakturalar asosida to'laydilar.

Takdim qilingan to'lanishi lozim bo'lgan to'lovnoma 55100 - "Vositachilik va xizmat xarajatlari" bosh kitobidagi tegishli balans hisobvarag'ining debetida aks ettiriladi.

To'lovlar uz vaqtida amalga oshirilishi va nazopati hamda ulapning hisobi to'g'ri yuritilishi uchun javobgarlik raxbar hamda bosh buxgalter zimmasiga, ular yo'qligida ularning muovnlari zimmasiga yuklatiladi.

Hisobdoplik asosidagi mablag'lap amaldagi ehtiyojga qarab "Xizmat safari xarajatlari", "Xizmat safapi davpidagi yashash xapajatlapi" degan

hisobvaraqlardagi mablag'lapdan beriladi va ular faqat bevosita ko'zlangan maqsadlarga, ya'ni xizmat safaplapiga, xo'jalik xapajatlapi va boshqalapga sapflanishi lozim. Xizmat safari xapajatlapiiga ish haqi hisobidan bo'naklar berish taqiqlanadi. Xizmat safapi xapajatlapi uchun bo'naklap xizmat safapiga jo'natilayotgan xodimning shaxsan o'ziga bepiladi. Xizmat safari xarajatlari uchun bo'naklarning hammasini guruhlar (brigadalar) raxbarlariga berib qo'yish ta'qiqlanadi.

Xizmat safarlari bilan bog'liq xarajatlar uchun hisobdoplik asosidagi mablag'lap xizmat safariga boradigan shaxslarga xizmat safari joyiga yetib borish va qaytib kelish qiymatini, kundalik xarajatlarni hamda turar joy xapajatlapi qoplaydigan summalar doirasida beriladi.

Hisobdoplik asosida pul olgan har bir bank xodimi o'zi olgan bo'nakni qanday sarflagani to'g'risida bo'nak hisoboti topshirishi, unga xo'jalik xarajatlari bo'yicha tasdiqlovchi xujjatlarni ilova qilishi shart. Bu hisobot bo'nak olinganidan keyin ko'pi bilan 3 kun ichida, xizmat safari xarajatlari bo'yicha esa safardan qaytilganidan so'ng uzog'i bilan 3 kun ichida topshirilishi zarur.

Hisobdoplik asosida bepilgan mablag'lapning sarflanmagan qoldiqlari topshiriq bajarilganidan yoki xizmat safaridan qaytilganidan keyin kechiktirmasdan, bank kassasiga topshirilishi lozim. Agar topshiriq bekor qilinsa, uni bajarish uchun hisobdorlik asosida berilgan bo'nak summasi darxol qaytarilishi kerak.

Yangi bo'nak berilishi uchun avval olingan bo'nak bo'yicha to'la hisob-kitob qilingan bo'linishi shart.

Hisobdor shaxs o'zi bajarayotgan topshiriqlar tusiga ko'ra faqat yonida doimo naqd pul olib yurishi kerak bo'lgan xollargina bundan mustasno. Qancha miqdorda tasdiqlanmagan bo'nak qoldig'i bo'lgani xolda sarflangan summani to'ldirish uchun yangi bo'nak berilishi mumkinligi bank raxbari tomonidan belgilanadi.

Tasdiqlangan bo'nak hisobotlari bo'yicha tegishli hisobvaraqlarga kiritiladigan xarajatlar, garchi u berilgan bo'naqdan ortgan bo'lsada, to'la summada hisobdor shaxslar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar kreditida qayd

etiladi.

O'tgan yili tugallangan xizmat safarlari bo'yicha sarflangan bo'naklar to'g'risidagi hisobotlar usha yilning o'zida qayd etilishi lozim.

O'tgan yili boshlanib, yangi yilda tugallangan xizmat safarlari bo'yicha sarflangan bo'naklar to'g'risidagi hisobotlar yangi yil aylanmalarida qayd etiladi. Kanday sarflangani to'g'risida xali hisobot berilishi mumkin bo'lmagan summalar ham 1 yanvar holatidagi hisobdor shaxslar hisobvaraqlari qoldiqlarida aks ettirilishi lozim.

Banklarda sarflangan mehnat, bajarilgan ish va xizmatlar hamda ular uchun hisoblangan ish (mehnat) haqini hisobga olishda dastlabki xujjatlarning qator shakllaridan foydalaniladi.

DAT «Asakabank» Farxod filialida asosan vaqtbay va ish haqi to'langanligi va mehnat intizomini nazorat qilish, shuningdek vaqtidan foydalanish darajasini tahlil qilish maqsadida tabel hisobi qo'llaniladi. Tabel hisobi ish vaqtini hisobga olish tabeli (64 shaklda) da yuritiladi. Bank tizimida tabellarni umumiy bo'lim raxbari tomonidan olib boriladi. Tabelda bo'linmadagi barcha xodimlarning tabel raqamlari izchil ravishda ko'rsatilib, ularning har kungi ishga chiqishlari, ishlagan soat miqdori qayd qilinadi. Ishga chiqmagan kunlar esa tabelda shartli belgilar, masalan, "T"- ta'til, "K"- kasal, "S"- sasbasiz va x.k. tartibda aks ettiriladi. Tabelda xar bir xodim bo'yicha oy oxiriga va boshiga foydalanilmagan dam olish kunlarining miqdori ko'rsatiladi. Mehnat va unga haq to'lash bo'yicha zarur ma'lumotlarni olish uchun tabelda ma'lumotlar har bir xodim bo'yicha; lavozimi, maoshi, toifasi, tabel raqami, sintktik va analitik hisobi va haq to'lash turi ko'rsatiladi.

Tabel hisobi ma'lumotlari xodimlarga ish (mehnat) haqi hisoblashda yagona asos bo'lib hisoblanadi. Har bir xodimga tegishli haqini aniqlash uchun bajarilgan ishlarin hisobga olishga doir dastlabki xujjatlar xodimlar bo'yicha guruhlanadi..

To'lov davridagi haqni jamlash hisoblashuv to'lov vedomostlari (73 shakl) yoki mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar daftari (44 shakl)da amalga oshiriladi.

Hisoblashuv to'lov vedomosti (mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar daftari)

mehnat haqi hisoblash va undan ushlanadigan chegirmalarni hisobga oladigan asosiy yigma xujjatdir.

To'lov vedosti ish vaqtini hisobga olish tabeli asosida xar bir xodimning mehnat haqi ulchami belgilangandan so'ng tuziladi. Xuddi Shunday 29896 hisob raqamida ish haqiga nisbatan hisoblangan ajratmalar hisobga olinadi.

DAT «Asakabank» Farxod filiali buxgalteriyasi tomonidan bir vaqtning o'zida ish haqidan pul ushlab qolish amalga oshiriladi, bu operatsiya 29896 hisob varaqasining shaxsiy hisob varaqalarida hisobga olinadi.

Ish haqi bilan birgalikda ish haqiga hisoblangan ajratmalar bank xarajatlariga (56102 hisob raqami ish haqi fondi) qo'shiladi.

DAT «Asakabank» Farxod filialida mehnat haqiga ajratmalar va soliqlar hisobini avtomatlashtirish, auditorlik tekshiruvlari uchun kerakli bo'lgan haqkoniy ma'lumotlar tayyorlab berish borasida anchagina ishlar amalga oshirilgan.

DAT «Asakabank» Farxod filiali eng yaxshi axborot texnologiyalarini joriy etishda ma'lum yutuqlarga erishdi.

Ammo amaldagi hisob tizimida faqatgina kompyuterlarni qo'llash orqali mehnat va unga haq to'lash hisobini zamon talabi asosida tashkil qilish imkoniyatini bermaydi. Bizningcha, mehnat va unga haq to'lash hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan biri uning uslubiy asoslaridan biri bo'lgan buxgalteriya hisobini schyotlar rejasidagi schyotlarning tarkibi va joylashishini takomillashtirish orqali erishishi mumkin.

Buning uchun schyotlar rejasidagi schyotlarni qo'yidagicha joylashtirish maqsadga muvofiqdir:

29800 "Boshqa pasivlar" schyotidan

22512 "Bandlik fondi bilan hisob-kitoblar" schyotidan keyingi bush turgan 22510 schyotni "Ijtimoiy sug'urta fondiga (5,5%) bilan hisob-kitoblar" deb atash maqsadga muvofiqdir. Bu ajratmalar ayni paytda pensiya fondiga qilinayotgan 25% li ajratmalar bilan birgalikda hisobga olinmokda.

Schyotlar rejasiga ushbu schyotlarni kiritish ularning analitik informatsiyalar bilan ta'kidlash imkoniyatini oshiradi va boshqaruv apparatini ma'lumotlar bilan

ta'minlash darajasini oshiradi.

Demak, mehnatga haq to'lashning analitik hisobi ish haqi hisoblash to'lov vedomostida, sintetik hisobi esa litsevovlarda yuritiladi.

Ishchi va xizmatchilar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashuvlarning analitik hisobi to'lov vedomosti yoki mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashishlar daftarida yuritiladi. Bu xujjatlar mehnat haqiga oid hisoblashuvlarni hisobga oladigan hisobvaraqlari, tabellari, jamg'arma vedomostlari, registlar va shaxsiy schyotlarga asosan tuziladi.

Oyning birinchi yarmi uchun avansberishda to'lov vedomostidan foydalaniladi. Vedomostda xodimning nomi, familiyasi va otasining ismi uning tabel raqami va avans summasi ko'rsatiladi. Mehnat (ish) haqi bo'yicha ishchi bilan hisoblashuvlarning sintetik hisobi 56102 "xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisoblashuvlar schyotida yuritiladi"

56102 schyotining kreditiga xoimlarga hisoblangan asosiy va qo'shimcha mehnat haqi, mehnat haqiga kirmaydigan (vaqtincha ishga qobiliyatsizlik, xomiladorlik uchun hisoblangan nafaqa, iqtisodiy ragbatlantirish fondi hisobidan berilgan mukofot, moddiy yordam va boshqalar) to'rli to'lovlar aks ettiriladi, debetida esa qo'lga berilgan, deponentga o'tkazilgan hamda ish haqidan ushlanib qolgan summalar aks ettiriladi.

DAT «Asakabank» Farxod filialida xodimlarga mehnat ta'tili uchun haq to'lash tartibi qo'yidagicha:

Mehnat ta'tili uchun hisoblangandan so'ng qo'yidagicha provodka beriladi.

I Dt 56102 mehnat ta'tili to'lovi.

Kt 29803 "Bank xodimlari bilan hisob kitoblardani to'lanishi lozm bo'lgan mablag'lar"

II Dt 56102 "Boshqa Majburiyatlar"

Kt 22510 "Nafaqa fondi 5,5%"

Kt22502 Hisoblangan daromad solig'i

III Dt 29803 "Bank xodimlari bilan hisob kitoblardani to'lanishi lozm bo'lgan

mablag'lar"

Kt 10101 Kassa.

DT 22502, 22510

Kt 10301

DAT «Asakabank» Farxod filialida oy ish yakunlari bo'yicha yil davomida mukofotlashni amalga oshirish.

Xomiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ish haqiniing 100 foizi miqdorida beriladi, nafaqa tayinlanganda ham 100 foiz miqdorda beriladi.

Xomiladorlik bo'yicha nafaqa berish uchun hisoblash qo'yidagi buxgalteriya provodkasi beriladi.

Dt 56114 "Pensiya fondiga ajratma" schyoti

Kt 29896 "Har xil majburiyatlar" schyoti

Kassadan berilganda esa:

Dt 29896 "Har xil Majburiyatlar" schyoti

Kt 10101 "Kassa"

Kasallik varaqasiga asosan nafaqa hisoblash uchun qo'yidagi provodka beriladi:

Dt - 56114 pensiya fondiga ajratma

Kt - 29896 Har xil Majburiyatlar

Endi esa DTA "Asakabank" Farxod filiali tomonidan 2013 va 2014 yilda amalga oshirilgan xarajatlarini tahlil qilamiz.


YUqoridagi 3-jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki, 2013 yilda jami xarajatlar 4642568,9 ming so'mni bo'lib, shundan foizli xarajatlar 2166191,5 ming so'mni yoki jami xarajatni 46,7 foizini, foizsiz xarajatlar 139361,4 ming so'mni yoki jami xarajatni 3,0 foizini va operatsion xarajatlar 2337015,9 ming so'mni yoki jami xarajatni 50,3 foizini tashkil qilgan. Ushbu xarajatlarni tahlil qilsak eng katta xarajat bu operatsion xarajatlarga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin.

DAT “Asakabank” Farxod filialining 2013 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotning xarajatlar qismi to’g’risida.

T/r	Moddalar	Joriy	nisbati
		yil	%
		31.12.2013	31.12.2013
1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	411 895,2	19,0
2	Boshqa foizli xarajatlar	1 754 296,3	81,0
	Jami: foizli xarajatlar	2 166 191,5	46,7
1	Foizsiz xarajatlar	139 361,4	100,0
2	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)	0,0	0,0
	jami foizsiz xarajatlar	139 361,4	3,0
1	Xodimlarning ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1 341 476,4	57,4
2	Ijara va ta'minot xarajatlari	452 323,1	19,4
3	Transport va xizmat safari xarajatlari	33 633,3	1,4
4	Ma'muriy xarajatlar	71 488,3	3,1
5	Asosiy vositalarning eskirishi	162 542,5	7,0
6	Homiylik to'lov xarajatlari	27 516,0	1,2
7	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	187 139,9	8,0
8	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini baholash	5 679,1	0,2
9	Daromad solig'i	55 217,4	2,4
	Jami: operatsion xarajatlar	2 337 015,9	50,3
	Hamma xarajatlar	4 642 568,9	100,0

Endi esa DAT “Asakabank” Farxod filialining 2013 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotning xarajatlar qismi diagrammasini keltiramiz.

3-diagramma



Endi esa DTA “Asakabank” Farxod filiali tomonidan 2014 yilda amalga oshirilgan xarajatlarini tahlil qilamiz.

DAT “Asakabank” Farxod filialining 2014 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotning xarajatlar qismi to’g’risida.

T/r	Moddalar	Joriy	nisbati
		yil	%
		31.12.2014	31.12.2014
1	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	343 627,4	12,7
2	Boshqa foizli xarajatlar	2 362 296,5	87,3
	Jami: foizli xarajatlar	2 705 923,9	48,8
1	Foizsiz xarajatlar	162 508,5	100,0
2	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)	30,5	0,0
	jami foizsiz xarajatlar	162 539,0	2,9
1	Xodimlarning ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1 501 442,7	56,0
2	Ijara va ta'minot xarajatlari	534 329,9	19,9
3	Transport va xizmat safari xarajatlari	31 062,7	1,2
4	Ma'muriy xarajatlar	69 146,2	2,6
5	Asosiy vositalarning eskirishi	173 878,0	6,5
6	Homiylik to'lov xarajatlari	7 955,6	0,3
7	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	232 390,0	8,7
8	Daromad solig'i	130 360,0	4,9
	Jami: operatsion xarajatlar	2 680 565,1	48,3
	Hamma xarajatlar	5 549 027,9	100,0

Yuqoridagi 4-jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki, 2014 yilda jami xarajatlar 5549027,9 ming so'mni bo'lib, shundan foizli xarajatlar 2705923,9 ming so'mni yoki jami xarajatni 48,8 foizini, foizsiz xarajatlar 162539,0 ming so'mni yoki jami xarajatni 2,9 foizini va operatsion xarajatlar 2680565,1 ming so'mni yoki jami xarajatni 48,3 foizini tashkil qilgan. Ushbu xarajatlarni tahlil qilsak eng katta xarajat bu yili foizli xarajatlarga to'g'ri kelganligini ko'rishimiz mumkin.

DAT “Asakabank” Farxod filialining 2014 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotning xarajatlar qismi diagrammasini keltiramiz. 4-diagramma



III-BOB. DAT “ASAKABANK” FARXOD FILIALIDA FOYDA VA ZARARLAR TO’G’RISIDAGI HISOBOTNI TUZISH TARTIBI

3.1. DAT “Asakabank” Farxod filialida “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisobotni tuzish tartibi.

Foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotni ko’pincha moliyaviy-xo’jalik faoliyat natijalari to’g’risidagi hisobot deb ataladi. Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot berilgan hisobot davrining boshiga va oxiriga bo’lgan balanslar o’rtasidagi bog’lovchi bo’g’in vazifasini bajaradi. Hisobot moliyaviy xo’jalik operatsiyalari (daromadlar va xarajatlar) keltirib chiqargan moliyaviy-xo’jalik faoliyatidagi o’zgarishlarni tushuntirib beradi.

Qarorlarni qabul qiluvchilar uchun foyda va zararlar to’g’risidagi hisobot joriy foydaning olinganligi (yoki mavjud emasligi) haqida ma’lumot olish manbaidir. Investor va kreditorlar, investitsiyalar sohasidagi buxgalter-tahlilchilar va boshqa mutaxassislar ushbu ma’lumotdan foyda va pul mablag’larini siljishini istiqbollashtirishda foydalanadilar.

Foyda va zararlar to’g’risidagi hisobotga qanday moddalarni kiritish haqida yagona fikr mavjud emas, shuningdek daromadni qaysi paytda tan olish haqida turlicha nuqtai nazarlar mavjud. Muammoning bir qismi shu bilan bog’liqki, turli odamlar foyda haqida har xil tushunchaga ega.

Daromadlar - bu korxonaning asosiy faoliyat natijalari bo’lgan aktivlarni kelib tushishi yoki ko’payishi yoxud majburiyatlarni kamayishi shaklida vujudga keladigan, odatda tovarlarni sotilishi, ijara xizmatlari yoki korxona resurslarini foydalanish uchun berilishidan olinadigan ijara daromadlari, foizlar, mualliflik gonorarlari yoki dividendlar shaklidagi iqtisodiy resurslarni ko’payishidir.

Xarajatlar - bu aktivlarni sarflanishi yoki yemirilishi yoxud majburiyatlarni ko’payishi shaklida vujudga keladigan va pirovard natijasida xususiy kapitalni kamaytiradigan iqtisodiy resurslarni kamayishi, ammo aktsiyador kapitalni ta’sischilari orasida taqsimlanishi bundan mustasnodir.

Foyda - bu xo'jalik sub'ektiga ta'sir etadigan asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat, hodisalar va sharoitlar natijasida kapitalning ko'payishi bo'lib, xususiy kapitalga to'lanadigan kapital bundan mustasnodir.

Zararlar - bu asosiy faoliyat va barcha xo'jalik muomalalari, hodisalar, sharoitlar natijasida xususiy kapitalning kamayishi bo'lib, xarajatlar yoki xususiy kapitalning taqsimlanishi natijasidagi kamayish bundan mustasnodir.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 25.10.2004 y.da 1419-son bilan ro'yxatga olingan Nizomni 2-ilovaga asosan tijorat banklarda "Foyda va zararlar" to'g'risidagi jamlanma hisobot yuritiladi.

Quyida DTA "Asakabank" Farxod filialining 2013 va 2014 yilgi "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotini tahlil qilamiz.

Quyidagi 5-jadvaldan shu narsa ko'rinib turibdiki, filial 2013 yilda foyda solig'ini 55217,4 ming so'm to'lagan bo'lsa, 2014 yilga kelib 130360,0 ming so'm to'lagan yoki 2013 yilga nisbatan 72142,6 ming so'm ko'p to'lagan. Buning sababi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 19 oktyabrda 2021-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklari tomonidan kredit portfeli tarkibida uzoq muddatli investitsiyaviy moliyalashning ulushiga qarab foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi nizom 2014 yildan bekor bo'lganligi uchun foyda solig'i ko'p to'langan.

2013 yilda jami foizli daromadlar 3162894,9 ming so'm olingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 4040733,8 ming so'm olingan yoki o'tgan yilga nisbatan 877838,9 ming so'm ko'p foizli daromad olingan.

2013 yilda jami foizsiz daromadlar 1801140,7 ming so'm olingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 1886344,8 ming so'm olingan yoki o'tgan yilga nisbatan 85204,1 ming so'm ko'p foizsiz daromad olingan.

2013 yilda jami foizli xarajatlar 2166191,5 ming so'm qilingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 2705923,9 ming so'mga yetgan yoki o'tgan yilga nisbatan 539732,3 ming so'm ko'p foizli xarajat qilingan.

DTA “Asakabank” Farxod filialining 2013 va 2014 yilgi “Foyda va zararlar to’g’risida”gi hisoboti.

T/r	Moddalar	Joriy	Joriy	farqi	
		yil	yil	kam	ortiq
		31.12.2013	31.12.2014		
1	Foizli daromad				
2	Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar	3 100 784,6	3 906 286,6		805 502,0
3	Boshqa foizli daromadlar	62 110,3	88 037,4		25 927,0
4	Moliyaviy lizing (Ijara)		46 409,9		46 409,9
5	Jami: foizli daromadlar	3 162 894,9	4 040 733,8	0,0	877 838,9
6	Foizli xarajatlar				
7	Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar	411 895,2	343 627,4	68 267,9	
8	Boshqa foizli xarajatlar	1 754 296,3	2 362 296,5		608 000,2
9	Jami: foizli xarajatlar	2 166 191,5	2 705 923,9	68 267,9	608 000,2
10	Sof foizli daromad	996 703,4	1 334 810,0		269 838,7
11	Foizsiz daromad	1 676 777,3	1 686 963,3		10 186,0
12	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)	81 981,9	101 732,7		19 750,9
13	Boshqa operatsion daromadlar	42 381,5	97 648,8		55 267,3
14	Jami: foizsiz daromad	1 801 140,7	1 886 344,8	0,0	85 204,1
	Jami daromadlar	2 797 844,0	3 221 154,8	0,0	355 042,9
1	Foizsiz xarajatlar	139 361,4	162 508,5		23 147,1
2	Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda (zarar)		30,5		30,5
3	jami foizsiz xarajatlar	139 361,4	162 539,0	0,0	23 177,6
4	Operatsion xarajatlar				
5	Xodimlarning ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar	1 341 476,4	1 501 442,7		159 966,3
6	Ijara va ta'minot xarajatlari	452 323,1	534 329,9		82 006,8
7	Transport va xizmat safari xarajatlari	33 633,3	31 062,7	2 570,6	
8	Ma'muriy xarajatlar	71 488,3	69 146,2	2 342,1	
9	Asosiy vositalarning eskirishi	162 542,5	173 878,0		11 335,5
10	Homiylik to'lov xarajatlari	27 516,0	7 955,6	19 560,4	
11	Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar	187 139,9	232 390,0		45 250,1
12	Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash xazirasini baholash	5 679,1	0,0	5 679,1	
13	Boshqa operatsion xarajatlar	2 281 798,5	2 550 205,1	30 152,1	298 558,7
14	Jami: operatsion xarajatlar				
15	Daromad (foyda) solig'i to'langunga qadar sof foyda (zarar)	376 684,1	508 410,7		33 306,6
16	Daromad (foyda) solig'ini baholash	55 217,4	130 360,0		75 142,6
17	Sof foyda	321 466,7	378 050,6	0,0	56 584,0

2013 yilda jami foizsiz xarajatlar 139361,4 ming so'm qilingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 162539,0 ming so'mga yetgan yoki o'tgan yilga nisbatan 23177,6 ming so'm ko'p foizsiz xarajat qilingan.

2013 yilda jami operatsion xarajatlar 2281798,5 ming so'm qilingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 2550205,1 ming so'mga yetgan yoki o'tgan yilga nisbatan 268406,6 ming so'm ko'p operatsion xarajat qilingan.

2013 yilda sof foyda 321466,7 ming so'mni tashkil qilingan bo'lsa, 2014 yilga kelib 378050,6 ming so'm bo'lgan. YOki o'tgan yilga nisbatan 56584,0 ming so'm ko'p sof foyda ko'rilgan.

3.2. DAT “Asakabank” Farxod filialida foyda va zaralar hisobini takomillashtirish yo’llari.

Ma’lumki, bugungi kunda tijorat banklarida buxgalteriya hisobi ilg’or tajribalar asosida yuritilmoqda. Buni tijorat banklari tomonidan yuritilayotgan buxgalteriya hisobi ishlarida yaqqol ko’rishimiz mumkin.

Lekin tobora rivojlanib borayotgan kuchli raqobat sharoitida yaxshi natijaga erishish va faoliyatni barqarorlashtirish uchun banklarda amalga oshiriladigan buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish zaruriyati kelib chiqadi. Ayniqsa, bu daromadlar va xarajatlar hisobini yuritishda juda muhimdir.

Bu yo’lda moliyaviy natijalar hisobini takomillashtirishning quyidagi yo’nalishlarini ko’rib chiqishimiz mumkin:

Birinchidan, tijorat banklarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida moliyaviy xo’jalik faoliyatiga baho beruvchi va yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun alohida hisobvaraq ajratilmagan. Bank daromadlari va xarajatlari yil yakunida to’g’ridan-to’g’ri 31200 – “Taqsimlanmagan foyda” hisobvarag’iga olib boriladi. Bizning fikrimizcha, yakuniy moliyaviy natija hisobini olib borish uchun alohida “YAkuniy moliyaviy natijalar” hisobvarag’ini kiritish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Ushbu hisobvaraq bank faoliyatini moliyaviy natijasida olingan jami daromadlar va xarajatlarni taqqoslash natijasida qoldiq sifatida aks ettirish imkoni bo’ladi. Ushbu hisobvaraqning debet tomonida hamma xarajat va zararlar, kredit tomonida esa, jami olingan daromadlar va foydalar hisobga olinish ko’zda tutiladi.

Bu hisobvaraqning kredit tomonidagi qoldiq qolsa, bank foyda olganligini, debet tomonidan qoldiq esa, bank hisobot davrini zarar bilan yakunlaganini bildiradi.

Ushbu hisobvaraqda hisobot davrining boshidan oxirigacha daromadlar va foyda olish yoki zarar ko’rish jarayonining harakati yoritiladi.

“YAkuniy moliyaviy natijalar” hisobvarag’ining ko’llanilishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- buxgalteriya balansida tenglashtirishuvchi rolni bajaradi;

- daromadlar va xarajatlar to'g'risida aniq ma'lumotlar beradi;
- bank daromad va xarajatlari barqarorligini yoritadi;

Ikkinchidan, tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi biror manbaga asoslanib amalga oshirilishi lozim. SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarida moliyaviy natijalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish to'g'risida aloxida nizom ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bu nizomda tijorat banklarining barcha daromadlari va xarajatlari, foyda va zararlarini buxgalteriya hisobini yuritish ko'zda tutiladi.

Nizomni chiqarilishi natijasida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- tijorat banklari barcha daromadlari va xarajatlari hisobi bitta me'yoriy hujjatda aks etadi;
- tijorat banklari buxgalterlari barcha daromadlarni va xarajatlarni buxgalteriyada hisobga olishda yagona shu nizomga muvofiq ish olib boradilar;
- tijorat banklari daromadlari va xarajatlari hisobini o'rganuvchilarga qulayliklar yaratiladi.

Uchinchidan, hozirgi vaqtda Markaziy bank tomonidan inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator chora tadbirlar qo'llanilmoqda, lekin shunga qaramasdan mamlakatimiz iqtisodiyotiga inflyatsiya o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Biz shuni taklif qilardikki, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning barcha moddalari hisobot davri sanasiga haqiqiy hisoblangan o'lchov biriligidagi aks ettirishga imkon beruvchi yangi standart ishlab chiqilsa, bunga muvofiq barcha summalar inflyatsiya darajasi koeffitsiyentiga korrektirovka qilish yo'li bilan qayta hisoblanadi.

Hulosa va takliflar.

Bugungi kunga kelib O'zbekistonda yaratilgan sharoitlar natijasida boshqa ko'pgina tarmoqlar singari bank tizimi ham rivojlanib kelmoqda. SHunisi quvonarliki, mustaqillikka erishilgandan keyingi qisqa davr ichida tijorat banklari jahon andozalariga mos keladigan rivojlanishga ega bo'ldilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari yuqori foydaga intiluvchi sub'ektlar ichida yetakchilardan biri bo'lib qoldi. Tijorat banklari foydasini ko'paytirishga harakat qilar ekan, ular daromadlar tarkibini kengaytirishga va xarajatlarni kamaytirishga harakat qiladilar. Bunga esa moliyaviy natijalar hisobi va tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.

DAT «Asakabank» Farxod filiali misolida ko'rdikki, hozirgi kunga kelib tijorat banklari moliyaviy natijalari hisobini amalga oshirish jarayoni ancha takomillashgan, lekin bir qator kamchiliklardan holi emas.

Biz quyida keltirgan hulosa va takliflar amalda qo'llanilsa, o'ylaymizki bu sohada yana ham yaxshi natijalarga erishish mumkin deb o'ylaymiz.

DAT «Asakabank» Farxod filiali moliyaviy natijalari hisobini yuritish borasida quyidagi hulosa va takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, tijorat banklarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida moliyaviy xo'jalik faoliyatiga baho berish uchun va yakuniy moliyaviy natijani aniqlash uchun alohida hisobvaraqlar ajratilmagan. Bank daromadlari va xarajatlari yil yakunida to'g'ridan-to'g'ri 31200 – “Taqsimlanmagan foyda” hisobvarag'iga olib boriladi.

Bizning fikrimizcha, yakuniy moliyaviy natija hisobini olib borish uchun alohida “Yakuniy moliyaviy natijalar” sintetik hisobvarag'ini kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu hisobvaraqlarda bank faoliyatining moliyaviy natijasi, ya'ni olingan jamiki daromadlar va sarflarni taqqoslash natijasida qoldiq sifatida aks ettirish imkoni bo'ladi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, hozirgi vaqtda Markaziy bank tomonidan inflyatsiya darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar qo'llanilmoqda,

lekin shunga qaramasdan mamlakatimiz iqtisodiyotiga inflyatsiya o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Ikkinchidan, daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi hisobotning barcha moddalari hisobot davri sanasiga haqiqiy hisoblangan o'lchov birligida aks ettirilishiga imkon beruvchi yangi standart kiritish. Shunday qilib, barcha summalar inflyatsiya darajasi koeffitsiyentiga korrektirovka qilish yo'li bilan qayta hisoblanadi.

Uchinchidan, tijorat banklari foizli daromadlarini oshirish uchun banklarning qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq operatsiyalarni rivojlantirishlari zarur. SHu bilan birga lizing, faktoring va diskont operatsiyalarini rivojlantirishlari lozim.

To'rtinchidan, yuqoridagilardan tashqari, banklar boshqa banklardan olingan kreditlarning salmog'ini kamaytirish va ularning o'rniga muddatli va jamg'arma depozitlarning salmog'ini oshirishga e'tiborni kuchaytirish lozim.

Beshinchidan, banklar daromadlarni oshirish bilan birga, ayrim xarajatlarni kamaytirishlari lozim.

Bank faoliyatining yuqori samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan biri tavakkalchilik bilan bog'liq xarajatlar hisoblanadi. Albatta, tavakkalchilik bilan bog'liq operatsiyalarni har doim qattiq nazorat qilib borish lozim.

Bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jarimalar va penyalar miqdorini kamaytirish yoki ularga umuman yo'l qo'ymaslik lozim.

Bu taklif va tavsiyalar DAT «Asakabank» Farxod filialida amaliyotga joriy qilinsa, yaxshi natija beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2003.

1. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2003.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Bank siri to‘g‘risida” gi Qonuni. – T.: “Adolat”. 2005.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hisobkitoblar mexanizmini takomillashtirish va respublika hamda mahalliy budjetlarga to‘lovlarning o‘z vaqtida kelib tushishini rag‘batlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 1998yil 4fevral.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarida aholi omonatlari shartlarini liberallashtirish hamda kafolatlarini ta‘minlashga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2008yil 20fevral, PF3968.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish choratadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. “O‘zbekiston”. 2005yil 10iyun.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklarning kapitallashuvini yanada oshirish va iqtisodiyotni modernizasiyalashdagi investisiya jarayonlarida ularning ishtirokini faollashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. 2007yil iyul. Bank axborotnomasi. 2007yil 17iyul № 28.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Banklardagi depozit hisobvaraqlaridagi naqd puldagi to‘lovlarni uzluksiz ta‘minlash kafolatlari to‘g‘risida” 2005yil 5avgustdagi PQ147sonli Qarori.

8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T: “O‘zbekiston”, 2009 yil.

9. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: “O‘zbekiston”. 2010yil.

10. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida. – T.: “O'zbekiston” 2005yil.
11. Abdullaeva SH.Z. Pul, kredit va banklar. – T.: “IQTISODMOLIYA”, 2007yil.
12. Abdullaev YO., Qoraliyev T.M., Toshmurodov SH., Abdullaeva S. Bank ishi. – T.: “IQTISODMOLIYA”, 2009yil.
13. Veremenko S.A. Syurprizы reytinga kommercheskix bankov. Bankovskoye delo. №2, 2005 g.
14. Klyuchnikov M.V. Ekonomikostatisticheskiy analiz struktury i dinamiki pokazateley passivnykh operatsiy kommercheskogo banka. – M.: “Finansы i kredit”. 2002 g.
15. Murugova I.A. Operatsionnaya texnika i uchet v bankax. – T., TMI 2004.
16. Mejdunarдные standartы finansovoy otchetnosti. – M.: “Askeri”. 2007.
17. Mullajonov F.M. Pulkredit sohasidagi mavjud vaziyat va monetar siyosatning 2010yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari.//Bozor pul va kredit. 2010yil yanvar 1soni.
18. Navruzova K.N. va boshqalar. Bank hisobi. “Fan va texnologiyalar”. – Toshkent. 2007yil .
19. Rashidov O'.YU. Pul, kredit va banklar – T.: TDIU, 2008yil.
20. SHirinskaya Z.G. Nesterova T.N. Uchet i operatsionnaya texnika v bankax. – M.: “Perspektiva” 2007.
21. “Bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirishning ustuvor yo'nalishlari” mavzusidagi II respublika an'anaviy ilmiyamaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent. 2007yil.
22. Bosh Depozitorlar Milliy Axborot Bazasi va unda mijozlarga hosraqam berish haqidagi 1145sonli Nizom. . 2002 yil 30 may
23. Bank moliya tizimidagi islohotlarga bag'ishlanadi. // Bank axborotnomasi 2008yil. №16.
24. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2008yil.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2008 yil 13 dekabrda 284 sonli Qarori bilan tasdiqlangan yo'riqnoma.

2. Tijorat banklari foizlarni hisoblash to'g'risidagi Nizom. 1306son bilan Adliya vazirligida ro'yxatga olingan. 2004 yil 30 yanvar.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi. 2005 yil. (2006-2014 yillardagi o'zgarishlari bilan).

4. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi. 2005 yil. (2006-2014 yillardagi o'zgarishlari bilan).

5. "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritishni va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2008yil 3maydagi 11/5sonli qarori bilan tasdiqlangan 1834 sonli yo'riqnoma.

6. O'zbekiston Respublikasida "Naqd pulsiz hisobkitoblarni tashkil qilish haqida"gi 11/22 Nizom. 2002yil 12 yanvar (2002-2010 yildagi o'zgarishlari bilan).

7. O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risidagi 1sonli yo'riqnoma. 2009yil 16mart 7/2sonli qarori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligida 2009 yil 27 aprelda davlat ro'yxatidan o'tkazildi).

8. Tijorat banklarida kassa ishini tashkil qilish, inkassatsiya va qimmatliklarni tashishga doir yo'riqnoma" Ro'yxat raqami 1831, 2008 yil 27 iyun, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 2008 yil, 2627son.

9. Markaziy bankning banklararo to'lov tizimi orqali elektron to'lovlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom. Ro'yxat raqami1545, 2006 yil 14 fevral.

INTERNET SAYTLARI

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti www.mf.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti www.soliq.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti www.stat.uz
4. www.gaap.ru

